

“Beruniy o‘qishlari” ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi

Bugun, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida “Beruniy o‘qishlari” deb nomlangan ilmiy anjuman o‘tkazildi.



Mazkur anjumanda vatanimiz tarixini targ‘ib qilish, uning shonli o‘tmishini tadqiq etishda tadqiqotchilarning ilmiy-usulbiy malakasini oshirish, ularni mamlakatda kechayotgan ilmiy jarayonlar bilan yaqindan tanishtirish va o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, unda respublikamizdagi sharqshunoslar, yosh olimlar ilmiy potentsialini oshirish, ilm-fan va ta‘lim integratsiyasini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish, tashkilotlararo

korporativ hamkorlik faoliyatini kengaytirish, milliy o'zlikni anglash va qadriyatlarni asrab qolish, jamiyat ravnaqi va tinchligiga putur yetkazadigan zararli g'oyalar tarqalishining oldini olish tadbir vazifasi qilib belgilandi.

Anjumanda Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi va ijodining dunyo ilm-fani taraqqiyotida tutgan o'rni, olim asarlari tadqiqi, unga oid tarixiy manbalar, tadqiqotlar tahliliga oid masalalar, buyuk allomalarimizning ilmiy merosini o'rganish, Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi, me'moriy yodgorliklar tarixi, Sharq xalqlari adabiyotining ommalashuvi va ma'naviy-badiiy qirralari, O'zbekistonning xorijiy sharq mamlakatlari bilan munosabatlariga alohida e'tibor qaratildi.